



**THE CURRENT STATE OF GENDER EQUALITY POLICY IN THE  
GOVERNANCE SYSTEMS OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN**

**Nasiriddinova Oydin Tangriyevna**

Associate Professor, Candidate of Legal Sciences Department of Social and  
Political Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology

**Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi**

Doctoral Researcher (PhD Candidate) Department of Social and Political  
Sciences Tashkent Institute of Chemical Technology

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the current state of policies aimed at ensuring gender equality within the governance systems of Uzbekistan and Kazakhstan. The study examines the institutional and legal foundations of reforms implemented in this area, the priority directions of state policy, and their practical outcomes. Furthermore, a comparative analysis of gender equality indicators is conducted based on official national statistical data as well as reports from international organizations, including the United Nations, the World Bank, and the World Economic Forum. The research highlights achievements, existing challenges, and future prospects for strengthening gender equality and inclusive governance in both countries.

**Keywords:** public policy, gender, legislation, government bodies, women’s rights, democracy, inclusiveness.

**O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON BOSHQARUVIDA GENDER  
TENGLIKNI TA‘MINLASH SIYOSATINING BUGUNGI HOLATI**

**Nasiriddinova Oydin Tangriyevna** - Toshkent kimyo texnologiya instituti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

**Boboraxmatova Malika Ulug‘bek qizi** - Toshkent kimyo texnologiya instituti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlarida boshqaruv tizimida gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan siyosatning hozirgi holati





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning institutsional va huquqiy asoslari, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda ularning amaliy natijalari yoritilib, milliy darajadagi rasmiy statistik ma’lumotlar, shuningdek, BMT, Jahon banki va Jahon iqtisodiy forumi kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida gender tenglik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** davlat siyosati, gender, qonunchilik, davlat organlari, xotin-qizlar huquqlari, demokratiya, inklyuzivlik.

Bugun jahonda globallashuv va tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan , terrorizm xavf solayotgan va etnik mojarolar kundan-kun avj olayotgan sharoitda davlatlar o‘z barqarorligini ta‘minlash va natijada rivojlanish va taraqqiyotga erishish, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayoniga jamiyatning barcha qatlamlarini, xususan, ayollarni faol jalb etish masalasi dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biriga aylangan. BMT tomonidan ishlab chiqilgan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi orqali xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida qarorlar qabul qilishda muvozanatli siyosiy ishtirok va hokimiyatni taqsimlash masalasi xalqaro miqyosda kelishilgan maqsadga aylantirilgan. Garchi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida to‘liq gender tengligiga hali erishilmagan bo‘lsa-da, gender kvotalari mexanizmi amaliy jihatdan sezilarli natijalar bermoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida gender tenglik bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar sezilarli darajada o‘smoqda, biroq boshqaruv strukturasi va qaror qabul qilish jarayonlarida hamon katta nomutanosibliklar mavjud. Qozog‘istonda gender tenglikni ta‘minlash va ayollar siyosiy ishtirokini kengaytirishga qaratilgan bir qator huquqiy va strategik hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, parlament va mahalliy hokimiyat organlarida ayollar vakilligining oshirilishi maqsadida Qozog‘iston qonunchiligi saylov partiyalarining ro‘yxatlarida ayollar va yoshlar uchun kamida 30 % kvota joriy etilishini belgilaydi. Biroq, Qozog‘istonda ayollar umuman davlat xizmatchilarining 55,8 % ini tashkil etsa-da, ularning 39,1 % atigi yuqori lavozimlarda faoliyat yuritmoqda. Bu, o‘z navbatida, ayollarning hal qiluvchi qarorlar qabul qilinadigan lavozimlarda nisbatan kam ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston gender tengligi bo‘yicha xalqaro reytinglarda ham o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. 2024-yilda jami 146 davlat orasida O‘zbekiston “Global Gender Gap Index” bo‘yicha 0,681 ball bilan 108-o‘rinni egallagan , bunda ayollar va erkaklar o‘rtasida ta‘lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlari yaqindan teng darajada





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

ekanligi qayd etilgan. Biroq iqtisodiy ishtirok va siyosiy vakillik sohalarida pastroq ballar qayd etilib, gender tengsizlikning mavjudligi tasdiqlanmoqda. Amaliyotda esa ijtimoiy stereotiplar hamon gender tenglikka to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu statistik ko'rsatkichlar va tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston va Qozog'istonda gender tenglik siyosatini o'rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuni o'rganishda tahlil etilgan asosiy manbaalardan birinchisi albatta O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddada "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi<sup>1</sup>" degan me'yorning mustahkamlanishi, mazkur prinsipning faqat deklarativ emas, balki amaliy-huquqiy darajada tatbiq etilishi lozimligini bildiradi. Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ham qonun va sud oldida har kimning tengligi, hech kim kelib chiqishi, ijtimoiy, mulkiy ahvoli, mashg'uloti, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, e'tiqodi, yashash joyi yoki boshqa har qanday holatlarga ko'ra kamsitilishi mumkin emas deb keltirilib o'tilgan<sup>2</sup>. 1979-yilda qabul qilingan "Xotin qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi" (CEDAW) global miqyosda gender tenglikni yuridik jihatdan mustahkamlovchi va amaliy jihatdan yo'naltiruvchi asosiy xalqaro-huquqiy hujjat sifatida tan olingan bo'lib, 1995-yil 18-avgustda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu konvensiya ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shakllarini bartaraf etish, ularning jamiyat hayotidagi to'laqonli ishtirokini ta'minlash va teng huquqli sharoitda rivojlanishini kafolatlashga qaratilgan. 2019-yilda qabul qilingan "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

<sup>2</sup> Republic of Kazakhstan. (1995). *Constitution of the Republic of Kazakhstan* <https://adilet.zan.kz>





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

to'g'risida"gi Qonun aynan CEDAW da belgilangan xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni huquqiy jihatdan kafolatlash, davlat organlarining bu boradagi majburiyatlarini aniqlashtirish hamda gender tenglikni ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni yaratishga xizmat qilmoqda<sup>3</sup>.

Xulosa sifatida ayta olamizki, jahonda rivojlangan davlatlar boshqaruv jarayonida, siyosatda, huquqda, iqtisodda va umuman olganda barcha davlat siyosiy tizim elementlarida gender tenglikni ta'minlash ijobiy natijalar olib kelganini inobatga olgan holda, doimiy ravishda ona, qiz, opa-singil, uy bekasi sifatida ko'rilgan, ayollar ta'limi va faolligi og'riqli nuqta hisoblangan Sharq mamlakatlari, xususan, Qozog'iston va barcha Markaziy Osiyo davlatlarida xotin-qizlarga nisbatan bunday noto'g'ri qarashni o'zgartirish va xotin-qizlarning ham davlat siyosiy tizimida yetarlicha imkoniyat va yutuqlarga ega bo'la olishini isbotlaydigan davr keldi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Republic of Kazakhstan. (1995). *Constitution of the Republic of Kazakhstan* <https://adilet.zan.kz>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.
4. Султонова, Э. С. (2006). *Аёл-давлатнинг ривожланиш стратегиясида (глобал муаммо сифатида)* (Докторлик диссертацияси, Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги). Тошкент, Ўзбекистон.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

